



KORPORATIV SHARTNOMA TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

O'zMU magistranti **Nurmuhamadov Tohirjon To'liqinjon o'g'li**

Annotatsiya:

Muallif mazkur maqolani korporativ shartnoma tushunchasi va uning mohiyatini tahlil qilishga bag'ishlagan. Ushbu maqolada korporativ shartnoma tushunchasining qonunchilikdagi aks etishi, uning mohiyati, belgilari va turlari tahlil qilinadi. Korporativ shartnomaning odatiy fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqlari aniq ko'rsatib beriladi, uning korporativ boshqaruv tizimidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, korporativ shartnomaning tor va keng ma'noda huquqiy tabiati, ya'ni konseptual jihatlari, ushbu turdagi shartnomalarni tuzishning zaruriyati, asosiy xususiyatlari, korporativ nizolarni oldini olish va ularni hal qilishdagi roli, investorlarning huquqlarini himoya qilishda samaradorligiga e'tibor qaratiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida va xalqaro tajribada korporativ shartnomalarning tartibga solinishiga qiyosiy yondashuv ham taqdim etiladi. Korporativ shartnomalarni tuzish va amal qilish jarayonidagi muammolar, shuningdek ularning korporativ madaniyat va etika rivojiga ta'siri haqida xulosa va takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: korporativ shartnoma, korporativ boshqaruv, aksionerlar kelishuvi, korporativ munosabatlar, huquqiy tabiat, manfaatlar muvozanati, korporativ nizolar, O'zbekiston qonunchiligi.

Abstract:

Author has devoted this article to analyzing the concept of a corporate agreement and its essence. This article will analyze the legislative reflection of the concept of a corporate agreement, its essence, characteristics, and types. The differences between a corporate agreement and ordinary civil law agreements are clearly shown, and its role and significance in the corporate governance system are revealed. Attention is also drawn to the legal nature of a corporate agreement in a narrow and broad sense, i.e., its conceptual aspects, the need to conclude such agreements, their main features, their role in preventing and resolving corporate disputes, and their effectiveness in protecting the





rights of investors. The article also presents a comparative approach to the regulation of corporate agreements in the legislation of Uzbekistan and international practice. Conclusions and proposals are made on the problems in the process of concluding and implementing corporate agreements, as well as their impact on the development of corporate culture and ethics.

Keywords: corporate agreement, corporate governance, shareholder agreement, corporate relations, legal nature, balance of interests, corporate disputes, Uzbekistan legislation.

Аннотация:

Автор посвятил данную статью анализу понятия корпоративного соглашения и его сущности. В статье проанализированы законодательное отражение понятия корпоративного соглашения, его сущность, особенности и виды. Четко показаны отличия корпоративного соглашения от обычных гражданско-правовых соглашений, раскрыта его роль и значение в системе корпоративного управления. Также обращается внимание на правовую природу корпоративного соглашения в узком и широком смысле, т. е. на его концептуальные аспекты, необходимость заключения таких соглашений, их основные особенности, роль в предотвращении и разрешении корпоративных споров, а также их эффективность в защите прав инвесторов. В статье также представлен сравнительный подход к регулированию корпоративных соглашений в законодательстве Узбекистана и международной практике. Сделаны выводы и предложения по проблемам в процессе заключения и реализации корпоративных соглашений, а также их влиянию на развитие корпоративной культуры и этики.

Ключевые слова: корпоративное соглашение, корпоративное управление, акционерное соглашение, корпоративные отношения, правовая природа, баланс интересов, корпоративные споры, законодательство Узбекистана.

O'zbekistonda so'nggi yillarda korporativ boshqaruv va biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Korporativ shartnomalar, xususan aksionerlik, ta'sis shartnomalari, ustavlar ushbu islohotlar





doirasida keng shakldan foydalanilib va takomillashib bormoqda. Asosiy yo'l xaritasi "blokcheyn" texnologiyalari yordamida korporativ shartnomalarni ro'yxatga olish va boshqarish tizimini joriy etilishi, "smart-contracts" (aqlli shartnomalar) ning korporativ munosabatlarda qo'llanilishi, sohaviy korporativ shartnomalar (masalan, agro-klastarlar, IT-konsorsiumlar)ni rivojlantirilishi, xalqaro arbitraj sudlarida korporativ shartnomalar bo'yicha nizolarni hal qilishni osonlashtirilishi korporativ huquq tizimidagi islohotlarning yorqin samarasi hisoblanadi.

Korporativ shartnomalar sohasidagi islohotlar izchil va maqsadli tarzda olib borilayotgani milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashishida, investorlar huquqlarini himoya qilinishida va korporativ boshqaruv sifati va shaffofligini oshishida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillardagi tizimli islohotlar korporativ shartnomalarning huquqiy maqomini sezilarli darajada mustahkamlagan bo'lsa-da, amaliyotda ularning samarali qo'llanilishi uchun yana ko'p ish qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "– Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha – barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko'proq muloqot qilib, korxonalarga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak. Biz katta iqtidor egalari bo'lgan biznes vakillarini asrashimiz, avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrlı insonlar. O'zbekistonda tadbirkorlik harakati orqaga qaytarib bo'lmaydigan katta kuchga aylandi. Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni o'z oldimizga qo'ymaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz. Tadbirkorlarimiz qancha boy bo'lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo'ladi. Tadbirkorning yutug'i – bu butun xalqimizning yutug'i".

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar tarkibiga kiruvchi korporativ shartnoma bu korporativ boshqaruv (corporate governance) tizimida qatnashuvchilar, ya'ni aksiyadorlar, direktorlar, boshqaruv raisi, ta'sischilar o'rtasidagi korxona faoliyatini tartibga soluvchi va ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Bu turdagi shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalardan korxona ichidagi munosabatlarni tartibga solishdagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.





Masalan, firmani tashkil qilayotganda ta'sischilar bir necha muhim masalalarni e'tibordan chetda qoldiradi. Xususan, vaqt o'tishi bilan firmaning aktivlari, yalpi ichki daromadi, aylanma mablag'lari o'sib boradi va sheriklar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Bitta ta'sischi o'z ulushini sotishni xohlaydi, boshqasi direktorni almashtirishni taklif qiladi, uchinchi esa bankdan kredit olishni talab qiladi. Bunday hollarda ta'sischilar o'zaro nizolashishishi va bu esa ko'pincha kompaniyaning tugatilishiga olib keladi.

Korporativ shartnoma og'zaki kelishuvlarni huquqiy shartlarga aylantirishga, har bir sherikning mas'uliyati cheklangan jamiyatdagi (MCHJ) roli bo'yicha rasmiy kelishuvni o'rnatishga va agar biznes muvaffaqiyatsiz bo'lsa, madaniyatli ajrashish tartibini o'rnatishga yordam beradi.

Huquqshunos olim T.V.Kashaninaning fikricha, korporativ shartnoma bu korporatsiyani tashkil etuvchi va (yoki) uning faoliyatini tartibga soluvchi, aksiyadorlar o'rtasidagi bitim. Shartnomaning asosiy funksiyalari, korporatsiyani tashkil etish, boshqarish va nizolarni hal qilishdir

Umumiy ravishda, korporativ shartnoma bu kompaniya ishtirokchilari o'rtasidagi kelishuv, ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi shartnoma turidir. Korporativ shartnoma, birinchi navbatda, shartnoma bo'lib, kompaniya bir nechta ishtirokchiga egaligini, ularning ulushlari muvozanatini belgilaydi. Masalan, agar kompaniyada to'rtta ishtirokchi bo'lsa, ular o'rtasida kompaniyani ta'sis etish, boshqarish, daromadlarni va zararlarni taqsimlash, huquq va majburiyatlar kabi asosiy muhim kelishuvlar korporativ shartnomada aks etadi.

Korporativ shartnomaning muhim shart va belgilari sifatida quyidagi asosiy xususiyatlarini sanab o'tishimiz mumkin:

korporativ shartnomalar faqat yozma shaklda tuziladi;

shartnoma muddati va sanasi aniq ko'rsatilishi kerak;

korporativ shartnomalarning shartlari va qoidalari to'liq maxfiy bo'lib, uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi (qonunchilik hujjatlarida yoki to'g'ridan-to'g'ri shartnomaning boshqacha tartib bo'lmasa).

shartnoma qoidalari korporativ shartnoma predmeti bilan tartibga solinadigan masalalarda boshqa shartnomalarga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi;





korporativ shartnoma faqat ma'lum bir kompaniya a'zolari bo'lgan shaxslar o'rtasida tuzilishi mumkin (bu jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin).

Korporativ shartnomalar qonun va kompaniya ustavida belgilanganidek, ta'sischilarning huquq va vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq turli masalalarni tartibga soladi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonuniga binoan, jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi jamiyat ta'sis hujjatlari deb hisoblanadi. Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerak. Ta'sis shartnomasida jamiyatning muassislari jamiyatni tuzish majburiyatini oladilar va uni tuzish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini belgilaydilar. Ta'sis shartnomasida quyidagilar ham belgilanadi:

jamiyat muassislarining (ishtirokchilarining) tarkibi;

jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori va jamiyat har bir muassisi (ishtirokchisi) ulushining miqdori;

jamiyat ta'sis etilayotganda uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalarini qo'shish tartibi, miqdori, usullari va muddatlari, hissalarini qo'shish bo'yicha majburiyatlarini buzganlik uchun jamiyamuassislarining (ishtirokchilarining) javobgarligi;

jamiyatning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida foyda va zararlarni taqsimlash shartlari va tartibi;

jamiyat organlarining tarkibi va jamiyat ishtirokchilarining jamiyatdan chiqish tartibi.

Sivilist olim V. R. Topildiyevning fikricha, ta'sis shartnomasi ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan korporativ aloqalar zahirida yuridik shaxs (korporatsiya) bilan bog'liq munosabatlar, korporatsiyani boshqarish munosabatlari yotadi.¹

Tadqiqotchilarning fikricha, quyidagi shartnomalarni tashkiliy shartnomalar tarkibiga kiritish mumkin.

ta'sis shartnomalari;

dastlabki shartnomalar;

¹ Topildiyev V.R. Tashkiliy munosabatlarining fuqarolik huquqiy talqini. –T., 2020. "Mumtoz so'z" –B.150 .





birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomalar;
tashishni tashkil etish to'g'risidagi shartnomalar;
turli transport tashkilotlari o'rtasida tuziladigan yuk tashish bilan bog'liq
shartnomalar;

majburiy tartibda tuziladigan shartnomalar va xokazolar.²

Ukraina qonunchiligini ko'radigan bo'lsak, 2018-yilda Ukrainaning "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi tufayli korporativ shartnoma kengroq ravishda aniq ta'riflandi va yuridik shaxs ishtirokchilariga umumiy yig'ilishlarda muayyan masalalar bo'yicha ovoz berish shartlari va tartibi bo'yicha oldindan kelishib olish imkoniyatini beradi.

Xorijiy korporativ amaliyotda korporativ shartnomaning, asosan, uch xil shakli keng qo'llaniladi. Bular, aksiyadorlar shartnomasi - aksiyadorlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, boshqaruv organlari shartnomasi - direktorlar kengashi, ijrochi direktor va boshqalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va korporativ boshqaruv shartnomasi - kompaniyaning umumiy boshqaruv tizimini tartibga soladi.

Milliy qonunchilik tizimida ustav va korporativ shartnomaning farqlarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Garchi huquqshunos olim V.R.Topildiev tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga asosan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga 358¹-modda sifatida «korporativ shartnoma» nomli moddani kiritilgan (O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O'RQ-1025-sonli qonuni bilan Fuqarolik kodeksi 358¹ -modda bilan to'ldirilgan) bo'lsa-da, uning huquqni qo'llash amaliyotida "mashhurlikka erishishi" biroz qiyin kechmoqda. Shu sababli, quyidagi jadvalda korporativ shartnoma va ustavning asosiy farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Mezon	Ustav	Korporativ Shartnoma
--------------	--------------	---------------------------------

² Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 592 6.





Huquqiy tabiat	Majburiy tashkiliy hujjat (kompaniya ro'yxatdan o'tishi uchun)	Ixtiyoriy bitim (tomonlarning o'zaro kelishuvi)
Tomonlar	Kompaniya va barcha aksiyadorlar yoki ishtirokchilar	Faqat shartnoma imzolagan shaxslar
Ommaviylik darajasi	Ochiq hujjat (davlat reyestrlarida ro'yxatga olinadi)	Maxfiy yoki cheklangan doira uchun
Huquqiy kuch	Statut (tashkil etuvchi hujjat)	Bitim (tomonlar o'rtasidagi shartnoma)
Mazmuni	Kompaniyaning tashkiliy tuzilishi va faoliyatining umumiy tamoyillari	Tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlari
O'zgartirish tartibi	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori (katta ko'pchilik ovoz)	Tomonlarning o'zaro kelishuvi
Amal qilish doirasi	Barcha aksiyadorlar, direktorlar va xodimlar uchun	Faqat shartnoma tomonlari uchun
Javobgarlik	Qonun va ustavni buzish - kompaniyani tugatishga olib kelishi mumkin	Faqat shartnomaviy javobgarlik

Korporativ shartnoma dispozitiv xususiyatga ega bo'lganligi sababli, ishtirokchilarning xohishiga shakllantiriladi. Biroq, kompaniya ishtirokchilari o'rtasida ushbu shartnoma tuzishning asosiy maqsadi korporativ huquqiy munosabatlarni





tartibga solish, ularni iloji boricha, konkret hal qilib olishdir. Masalan, dividendlarni taqsimlash, kompaniyaning ustav kapitalidagi ulushini sotib olishning imtiyozli huquqi eng ko'p uchraydigan nizoli vaziyatlar bo'lib, bundan shartnoma bularni qonuniy hal qilishda asosiy instrument bo'la oladi.

Umuman olganda, korporativ shartnoma tadbirkorlik subyektlariga o'z bizneslarini qonuniy doirada amalga oshirish imkon beradi. Yaxshi tuzilgan korporativ shartnoma firma va ta'sischilarning huquqlarini himoya qilishda kuchli dalil bo'la oladi.

Korporativ shartnomaning mohiyatini anglashda, bu shartnoma korporativ munosabatlarning aniqligini ta'minlashda, nizolarning oldini olishda va kompaniyaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishida roli yuqoriligini bilib olishimiz lozim. Xususan, ingliz iqtisodchisi Ronald Coase korporativ shartnomani bozor tranzaksiyalari xarajatlarini minimallashtirish vositasi sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, firma ichidagi shartnomalar bozordagi shartnomalarga qaraganda samaraliroq, chunki ular, muzokara xarajatlarini kamaytiradi, noaniqlikni qisman bartaraf etadi, nazorat mexanizmlarini yaratadi. Shuningdek, olim fanga "shartnoma iyerarxiyasi" tushunchasini kiritgan, ya'ni korporativ shartnomalar oddiy bozor shartnomalaridan yuqoriroq darajada joylashganligini ilgari surgan³.

Demak, korporativ shartnoma kompaniyaning ichki huquqiy masalalarini yechishda muhim va bu kamchiliklar va noaniqliklarni bartaraf etishda g'oyatda muhimdir. Korporativ shartnomaning eng muhim mohiyati bu uning maxfiyligidan kelib chiqadi. Bu esa shtirokchilarni kompaniyaning ichki ishlariga hukumat aralashuvidan himoya qilishga yordam beradi. Xususan, firmsani ro'yxatdan o'tkazishda ustav davlat xizmatlari markaziga taqdim qilinsa, korporativ shartnoma maxfiy hujjat bo'lib, uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

Korporativ shartnoma siz qaysi tarafda bo'lishingizga qarab, turli xil ko'rinishlarda sizga manfaatli bo'ladi. Xususan, agar siz kichik ta'sischi bo'lsangiz,

- siz muayyan harakatlarga veto qo'yish huquqiga ega bo'lasiz;
- siz muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok eta olasiz;

³ Coase, R.H. (1937). "The Nature of the Firm." *Economica*, 4(16), 386-405.





- siz o'z aksiyalaringizni asosiy aksiyador bilan birga sotishingiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, agar asosiy aksiyador o'z ulushini sotsa, siz xuddi shu shartlar asosida sotib olishni talab qilish huquqiga egasiz.

Agar siz investor bo'lsangiz, siz kutilmagan xavflardan himoyalanasiz va kompaniyaga kirishdan oldin xavflarni tahlil qila olasiz. Bundan tashqari, korporativ shartnoma biznes egasi tomonidan taqdim etiladigan bir qator kafolatlarni o'z ichiga olishi mumkin, bunda yangi investor investitsiyalarini amalga oshirishda ularga tayana oladi. Agar kelajakda bu kafolatlar bajarilmasa, investor zararlar uchun kompensatsiya talab qilish yoki hatto biznesdan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma barcha ishtirokchilarning ham hozirgi ham kelajakdagi huquqlarini teng ravishda himoya qiladi.

Yana bir eng muhim jihat bu shartnomadagi raqobatga qarshi qoidalaridir. Bunda tomonlarning bizneslariga zarar yetkazilishining oldini olish uchun ma'lum bir muddat yoki biron bir vaziyat yuzaga kelganda bir-biri bilan raqobatlashmaslik (bir xil yoki o'xshash mahsulot bozorida faoliyat yuritadigan kompaniyalarni tashkil qilmaslik yoki ularda ishtirok etmaslik) majburiyatidir. Korporativ shartnoma, shubhasiz, har bir Ukraina kompaniyasida mavjud bo'lgan ustavga teng emas. Korporativ shartnoma shunchaki ustav shartlarini to'ldiradi va belgilaydi, ya'ni u (uni uchinchi shaxslarga taqdim etishda) ommaga oshkor qilinmasligi kerak bo'lgan va ustavga jiddiy yuk keltirishi mumkin bo'lgan qoidalarni kengaytiradi.

So'nggi davrlarda keng tarqalgan masalalardan yana bir bu korporativ shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik choralaridir. Masalan, korporativ shartnoma taraflarining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun majburiyatlarni ta'minlashning umumiy fuqarolik usullari (masalan, jarimalar) va majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun fuqarolik javobgarligi choralari (masalan, zararni qoplash) qo'llanilishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, korporativ shartnoma faqat uning taraflari uchun majburiydir, boshqa ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslar uchun esa yuridik kuchga ega emas. Shuning uchun, shartnomani buzish kompaniya boshqaruv organlarining qarorlarini (masalan, ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qarorlarini) haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'la olmaydi.





Advokat Yulia Mixalchukning fikricha, korporativ shartnomani buzish ishtirokchiga jarimalar yoki zararni qoplash kabi jazo choralarini qo'llashga olib kelishi mumkin. Shuningdek, himoyachi korporativ shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash masalasini ko'rib chiqishni ilgari surgan, ya'ni garovlar, kafilliklar, kafolatlar va boshqalar⁴.

Korporativ shartnomaga standartlashgan shartnoma sifatida qaraladigan holatlar bor. Xususan, Frank Easterbrook va Daniel Fischel qarashlari bo'yicha, shartnoma standartlashtirilgan shartnoma hisoblanib, aksiyadorlar shartlarni erkin kelisha oladi va shartnoma tomonlarga keng erkinliklar beradi⁵.

Shuningdek professor I.S.Shitkinaning fikricha, korporativ shartnoma korporatsiyaning ichki huquqiy rejimini belgilaydi. Bunda subsidiarlik prinsipi mavjud bo'lib, shartnoma faqatgina qonunda tartibga solinmagan masalalarni tartibga soladi. Shuningdek, olim shartnoma dinamik tabiatga ega ekanligini yozadi, ya'ni vaqt o'tishi bilan shartlar o'zgarishi mumkin⁶.

Korporativ shartnomalarni tuzishda har bir kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlarini, korporativ madaniyatini va uzoq muddatli maqsadlarini hisobga olish, shuningdek, professional yuridik maslahatdan foydalanish muvaffaqiyatli natijalarga erishishning asosiy garovi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korporativ shartnoma tushunchasi doimo rivojlanib borayotgan, ko'p qirrali va konteksga bog'liq institut hisoblanadi. Ushbu sohada keyingi tadqiqotlar globalizatsiya, raqamlashtirish va barqarorlik talablari yangi shakllanishlarga olib kelayotgan davrda ayniqsa dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ shartnoma bu nafaqat huquqiy hujjat, balki korporatsiyaning muvaffaqiyatli faoliyatining muhim shartidir. U korporativ munosabatlarning aniqligini ta'minlaydi, nizolarning oldini oladi va kompaniyaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Global iqtisodiyotning rivojlanishi va korporativ boshqaruv standartlarining takomillashuvi bilan korporativ shartnomalarning ahamiyati tobora ortib boradi. O'zbekiston korporativ amaliyotida ham ushbu

⁴ <https://corplaw.pro/corporativniy-dogovor>

⁵ Easterbrook, F.H., & Fischel, D.R. (1991). "The Economic Structure of Corporate Law." *Harvard University Press*.

⁶ Шиткина, И.С. (2007). "Корпоративное право." *Волтерс Клувер*.





institutning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Иқтибослар/Сноски/References:

- 1) Топилдиев В.Р. Ташкилий муносабатларнинг фуқаролик ҳуқуқий талқини. –Т., 2020. “Mumtoz so‘z” –Б.150 .
- 2)Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 592 б.
- 3) Coase, R.H. (1937). "The Nature of the Firm." *Economica*, 4(16), 386-405.
- 4) Кашанина, Т.В. (2019). "Корпоративное право." *Норма*.
- 5) Easterbrook, F.H., & Fischel, D.R. (1991). "The Economic Structure of Corporate Law." *Harvard University Press*.
- 6) Шиткина, И.С. (2007). "Корпоративное право." *Волтерс Клувер*.
- 7) Ukraina Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonuni;
- 8) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- 9) “O'zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g`risida”gi qonuni
- 10) Topildiyev V.R. Fuqarolik qonunchiligida korporativ munosabatlarni takomillashtirish istiqbollari xususida ayrim mulohazalar. *Eurasian journal of law, finance and applied sciences*. –Т., 2022; 105-114 betlar.
- 11) <https://corplaw.pro/corporativniy-dogovor>
- 12) <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/2275-19/stru>
- 13) <https://president.uz/oz/lists/view/7778>

